



SANOAT KORXONALARNI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA AXBOROT XAVFSIZLIGI O'RNI

Uktamov Xusniddin Faxriddinovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada korxonalar iqtisodiy xavfsizligi tizimi, iqtisodiy axborotlar xavfsizligi va axborotlarni ximoya qilishda raqamli texnologiyalarning samaradorligi to'g'risida axborot-tahliliy ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *iqtisodiy xavfsizlik tushunchasi, iqtisodiy xavfsizlik tizimi, iqtisodiy axborotlar, korxona, raqamli texnologiyalar.*

Hozirgi jahon iqtisodiyot ilmida va mamlakatlar iqtisodiy siyosatida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash muammolariga jiddiy e'tibor berilishi ushbu mavzuning dolzarbligidan darak beradi. Hozirgi dunyoda tartib qoidalar o'zgarib borayotgan sharoitda geosiyosiy ta'sir doiralarini «qayta taqsimlash»ga urinishlar kuzatilmoqda, bu esa xalqaro huquq universal prinsiplarining buzilishiga va jahonda strategik mavhumlikning kuchayishiga sabab bo'lmoqda. Globallashuvning muqarrarlik xususiyati, uning bir tomondan, davlatlarning barqaror rivojlanishi uchun qulay imkoniyatlar ochib berishi, boshqa tomondan esa, iqtisodiy, oziq-ovqat, energetika, ekologiya, axborot, gumanitar xavfsizlik sohalarida to'g'ridanto'g'ri va potensial xavf tug'dirmoqda. Xavfsizlik bu murakkab va serqirra kategoriyadir. U asosan va ko'pincha ishlab chiqarishda foydalanilayotgan vositalarning xavfsizligi nuqtai nazaridan baholanadi va ko'rib chiqiladi. Shu sababli hozirgacha biz texnika xavfsizligi, piyoda xavfsizligi, oziq-ovqat xavfsizligi yoki zararsizligi kabi tushunchalarni uchratsakda, korxona xavfsizligiga hali duch kelganimiz yo'q. Mahsulotlarning zamonaviy namunalari, ishlab chiqarish texnologiyasi, investitsiya rejalari va boshqalar sanoat ayg'oqchiligidan diqqat markazida turib, korxona va mamlakat uchun ma'lum bir xavf tug'diradi. Shu sababli xavfsizlik va tijorat sirlari muammolari hozirgi bozor va raqobatchilik sharoitlarida iqtisodiyot fanining, jumladan, zamonaviy korxonalar iqtisodiyotining muhim bo'limlaridan biri hisoblanadi. Axborot xavfsizligi deb, ma'lumotlarni yo'qotish va o'zgartirishga yo'naltirilgan tabiiy yoki sun'iy xossalari tasodifiy va qasddan ta'sirlardan xar qanday tashuvchilarda axborotning himoyalanganligiga aytiladi. Tarixdan ma'lumki, ilgari xavf faqatgina maxfiy xabarlar va xujjatlarni o'g'irlash yoki nusxa olishdan iborat bo'lsa, hozirgi paytdagi xavf esa kompyuter ma'lumotlari to'plami, elektron ma'lumotlar, elektron massivlardan ularning egasidan ruxsat so'ramasdan foydalanishdir. "Bulardan tashqari, bu xarakatlardan moddiy foyda olishga intilish ham rivojlandi". Bunday jarayonlarda albatta axborot muhofazaasi tashkil etilishi kerak bo'ladi.

Axborotni himoyalashning maqsadlari quyidagilardan iborat hisoblanadi:



- axborotning kelishuvsiz chikib ketishi, ugirlanishi, yo'qotilishi, o'zgartirilishi, soxtalashtirilishlarning oldini olish;

- shaxs, jamiyat, davlat xavfsizligiga bulgan xavf – xatarning oldini olish;

- axborotni yo'q qilish, o'zgartirish, soxtalashtirish, nusxa kuchirish, tusiklash buyicha ruxsat etilmagan xarakatlarning oldini olish;

- xujjatlashtirilgan axborotning mikdori sifatida xukukiy tartibini ta'minlovchi, axborot zaxirasi va axborot tizimiga xar kaday nokonuniy aralashuvlarning kurinishlarining oldini olish;

- axborot tizimida mavjud bulgan shaxsiy ma'lumotlarning shaxsiy maxfiyligini va konfidentsialligini saklovchi fukarolarning konstitutsion xukuklarini ximoyalash;

- davlat sirini, konunchilikka mos xujjatlashtirilgan axborotning konfidentsialligini saklash;

- axborot tizimlari, texnologiyalari va ularni ta'minlovchi vositalarni yaratish, ishlab chikish va kullashda sub'ektlarning xukuklarini ta'minlash.

Axborot xavfsizligini ta'minlash sohasidagi davlat siyosati axborot sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan bo'ladi hamda shaxs, jamiyat va davlatning axborot borasidagi xavfsizligini ta'minlash sohasida davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining asosiy vazifalari hamda faoliyat yo'nalishlarini, shuningdek fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlarining, fuqarolarning o'rni va ahamiyatini belgilaydi. Har qanday taraqqiy etgan jamiyat hayotida axborotning ahamiyati uzluksiz ortib bormoqda. Uzoq o'tmishdan davlatning harbiy-strategik ahamiyatiga molik bo'lgan ma'lumotlar qat'iy sir tutilgan va himoyalangan. Hozirgi vaqtda ishlab chiqarish texnologiyalariga va mahsulotlarni sotishga tegishli axborot tovar ko'rinishiga ega bo'lib, ichki va tashqi bozorda unga bo'lgan talab ortib bormoqda. Axborot texnologiyalari avtomatlashtirish va axborotni muhofaza qilish yo'nalishlarida muntazam mukammallashib bormoqda.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining taraqqiyoti sanoat shpionaji, kompyuter jinoyatchiligi, konfedensial ma'lumotlarga ruxsatsiz kirish, o'zgartirish, yo'qotish kabi salbiy hodisalar bilan birgalikda kuzatilmoqda. Shuning uchun axborotni muhofaza qilish har qanday mamlakatda muhim davlat vazifasi hisoblanadi. O'zbekistonda axborotni muhofaza qilishning zaruriyati axborotni muhofaza qilishning davlat tizimi yaratilishida va axborot xavfsizligining huquqiy bazasini rivojlantirishda o'z ifodasini topmoqda. «Axborotlashtirish to'g'risida», «Davlat sirlarini saqlash to'g'risida», «Elektron hisoblash mashinalari dasturlari va ma'lumotlar bazalarini huquqiy himoya qilish to'g'risida» va boshqa qonunlar hamda bir qator hukumat qarorlari qabul qilindi va amalga tatbiq etildi. Turli soha xodimlari tomonidan o'z maqsadlariga moslashtirish holatlari mavjud bo'lsada, axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlik tushunchalari orasida ba'zi muhim farqlar mavjud. Axborot xavfsizligi sohasi axborotning ifodalanishidan qat'iy nazar – qog'oz ko'rinishdagi, elektron va insonlar fikrlashida, og'zaki va vizual aloqada intellektual huquqlarini himoyalash bilan shug'ullanadi. Kiberxavfsizlik esa elektron shakldagi



axborotni (barcha holatlardagi, tarmoqdan to qurilmagacha bo'lgan, o'zaro birga ishlovchi tizimlarda saqlanayotgan, uzatilayotgan va ishlanayotgan axborotni) himoyalash bilan shug'ullanadi. Bundan tashqari, hukumatlar tomonidan moliyalashtirilgan hujumlar va rivojlangan doimiy tahidlar (Advanced persistent threats, APT) ham aynan kiberxavfsizlikka tegishlidir. Qisqacha aytganda, kiberxavfsizlikni axborot xavfsizligining bir yo'nalishi deb tushunish uni to'g'ri anglashga yordam beradi.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar rivojlanishi bilan kiberxavfsizlikning ahamiyati oshdi. Kiberxavfsizlik va malumotlarni himoya qilish zamonaviy axborot texnologiyalarining ajralmas qismidir. Ularning asosiy tushunchalarini tushunish va ularga rioya qilish tashkilotlarning xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun, har bir foydalanuvchi va tashkilot kiberxavfsizlikni jiddiy qabul qilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Information Technology Security Evaluation Criteria (ITSEC), Provisional Harmonized Criteria (1991) Luxembourg: Office for Official Publications of the European Communities, 1991 ISBN 92-826-3004-8, Catalogue Number: CD-71- 91-502-EN-C © ECSC-EEC-EAEC, Brussels • Luxembourg.
2. National Information Systems Security (InfoSec) Glossary (2000) National Security Telecommunications and Information Systems Security Committee. National Security Agency US.
3. Pfleeger, C.P. (1997) Security in Computing. Second Edition, Prentice Hall, Upper Saddle River.
4. Guttman, B. and Roback, E. (1995) An Introduction to Computer security: The NIST Handbook. DIANE Publishing. <http://dx.doi.org/10.6028/NIST.SP.800-12>
5. Stamp M. Information security: principles and practice // John Wiley & Sons, 2011, -P. – 606.
6. Purdy G. ISO 31000: 2009—setting a new standard for risk management //Risk Analysis: An International Journal. – 2010. – T. 30. – №. 6. – C. 881-886.
7. ISACA C. S. X. Cybersecurity Fundamentals //Study Guide. – 2014.
8. Curricula C. Curriculum guidelines for post-secondary degree programs in cybersecurity. – 2017.
9. Акбаров Д.Е. Ахборот хавфсизлигини таъминлашнинг криптографик усуллари ва уларнинг қўлланилиши // Тошкент, 2008, -Б. - 394.